

6. Ruxsora U. O‘zbekiston turizm statistikasi // tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g‘oyalar. – 2025. – T. 1. – №. 8. – C. 401-404.

7. Toshtemirovich M.Z. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish: imkoniyatlar va strategiyalar //Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 40-43.

**Gulnoz ABDUMANNONOVA,**  
**TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning**  
**ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi tayanch doktoranti**

## **O‘ZBEKISTONDA “YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISHDA TURIZMNING TA’SIR DOIRASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakatda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonlarida turizmni rivojlantirish va unga ta’sir qiluvchi omillar hamda yo‘nalishlar o‘rganilgan.*

***Kalit so‘zlar:** “Yashil” iqtisodiyot, turizm, atrof-muhit, ekologik ifloslanish, infratuzilma, barqaror rivojlanish.*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается развитие туризма в период перехода страны к зеленой экономике, а также факторы и направления, оказывающие на него влияние.*

***Ключевые слова:** зеленая экономика, туризм, окружающая среда, загрязнение окружающей среды, инфраструктура, устойчивое развитие.*

***Abstract.** This article examines the development of tourism during the country's transition to a green economy, as well as the factors and directions influencing it.*

***Keywords:** green economy, tourism, environment, ecological pollution, infrastructure, sustainable development.*

Bugungi kunda Respublika iqtisodiyotida turizmni strategik darajada ko‘tarish, turizm xizmatlarini va turistik mahsulotlarni yanada rivojlantirish hamda turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish asosiy iqtisodiy maqsadlardan biri bo‘lib kelmoqda. Turizmni rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish asosiy maqsadlardan biridir. Shu maqsadda yurtboshimiz tomonidan mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish uchun bir qator qonun va farmoyishlar qabul qilingan. Turizmni rivojlantirish hamda mamlakatda turistlar oqimini ko‘paytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonida xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo‘yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish, turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish asosiy vazifalardan biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. O‘zbekistonda tarmoq tashkilotlarning barqaror ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini yaxshilash maqsadida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan rejalarni amalga oshirish va rivojlantirish istiqbollari bo‘yicha takliflar ishlab chiqish<sup>202</sup> hamda mamlakatda yashil iqtisodiyotni

---

<sup>202</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini boshqarish tizimini

yanada rivojlantirish maqsadida boshqa faoliyat turlariga bogʻlanganlik darajasini ham oʻrganish zaruriyati tugʻiladi. Respublikada turizm bozorining turli segmentlariga yoʻnaltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish, ularning raqobatbardoshligini yanada oshirish, maqbul va qulay ichki va xalqaro ziyorat turizmi muhitini yaratish, transport yoʻnalishlarini kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish, turizm mahsulotlarini keng targʻib qilish, shuningdek, mamlakatimizning sayohat va dam olish uchun xavfsiz manzil sifatidagi imijini mustahkamlash maqsad qilib belgilangan.

Turizm sohasida “yashil” iqtisodiyot tushunchasi iqtisodiy rivojlanish bilan atrof-muhit barqarorligini muvozanatlashni maqsad qiladi, tabiiy ekotizimlar saqlanib qolishi bilan birga mahalliy jamoalarga iqtisodiy foyda keltirishni taʼminlaydi.<sup>203</sup>

Mamlakatda turizm boshqaruvi siyosatini ishlab chiqishda jamiyat talablariga moslashishni talab qiladi. Hamda, turizm boshqaruvida iqtisodiy va ekologik barqarorlikni hisobga olishni taʼminlash uchun xususiy sektor va tadbirkorlik subyektlari jalb qilinish zaruriyatini tugʻdiradi. Umuman olganda, hukumat va jamiyat, biznes, ommaviy axborot vositalari oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlikda masʼuliyat turizm boshqaruvini atrof-muhitni muhofaza qilish istagini oshiradi, bu esa mamlakatda turizmning rivojlanishi orqali barqarorlikni taʼminlashga va yashil iqtisodiy jarayonlarga xalaqit bermay oʻsishiga xizmat qiladi.

Turizm sohasi rivojlantirish orqali mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga sezilarli taʼsir koʻrsatadi, ijtimoiy-iqtisodiy oʻsish va madaniy merosni muhofaza qilishga asosiy hissa qoʻshadi.<sup>204</sup>

Sifatli usullar yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda murakkab ijtimoiy-ekologik tizimlarni va jamoalar bilan atrof-muhit oʻrtasidagi koʻp qirrali munosabatlarni toʻliq tushunish orqali muhim ahamiyatni kasb etadi.<sup>205</sup>

1-rasm maʼlumotlariga tayanilsa, mamlakatda yaqin kelajakda turizm barqarorligini taʼminlash uchun amalga oshirilishi lozim boʻlgan asosiy tamoyillar koʻrsatib oʻtilgan. Misol uchun, yangi turizm siyosatida takomillashtirilgan boshqaruv uchun sohalararo hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Bunda manfaatdor tomonlarning asosiy masalalar sifatida yashil iqtisodiyotga oʻtishda turizmning ahamiyat, soliq siyosatining oʻrni investitsiyalar, innovatsion texnologiya va asosiy infratuzilmaga bogʻliq yoʻnalishlar hisoblanadi.

Bundan tashqari, manfaatdor tomonlarning ishtiroki ijro etuvchilarning masʼuliyatini taʼminlaydi va amalga oshirilgan siyosatlar yanada aniq natijalar beradi. Davlat siyosati turli hukumat darajalari tomonidan turizm boshqaruvi siyosatlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni oʻz ichiga oladi. Bir nechta modellar jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari, biznes va tadbirkorlik tashkilotlar vakillari

---

tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 29.09.2023 yildagi 514-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6622631>


<sup>203</sup> Liu, J., Wang, Z., Li, C. (2023). All-for-one tourism demonstration zones and high-quality development of tourism: Evidence from the quasi-natural experiment in China. *Sustainability*, 15(15): 11626. <https://doi.org/10.3390/su151511626>

<sup>204</sup> Pan, S.Y., Gao, M., Kim, H., Shah, K.J., Pei, S.L., Chiang, P.C. (2018). Advances and challenges in sustainable tourism toward a green economy. *Science of the Total Environment*, 635: 452-469. <https://doi.org/10.1016/j.scitotenv.2018.04.134>

<sup>205</sup> Purnomo, E.P., Fathani, A.T., Kasiwi, A.N., Tenorio, C.B. (2022). How does government policy support sustainable tourism in dealing with COVID-19 pandemic? *Journal of Sustainable Science & Management*, 17(2): 170-186. <https://doi.org/10.46754/jssm.2022.02.013>

yuqori darajada ishtirok etishini ko'rsatadi.<sup>206</sup>

Ushbu chizmada turizmni yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida boshqaruvini ko'rsatib beradi. Unda asosiy 3ta yo'nalish o'rganiladi, ular indikatorlar ya'ni, madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik jihatlar orqali mamlakat hududidagi tuzim faoliyatini baholaydi. Ko'p darajali boshqaruv siyosatida esa, milliy va mahalliy darajada siyosat va amaliyotni uyg'unlashtiradi.



**1-rasm. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishda barqaror turizmning ahamiyati<sup>207</sup>**

Oldinga qo'yilgan asosiy maqsadlar mamlakat hududida barqaror turizm va yashil iqtisodiy rivojlanishga erishishni baholab beradi. Atrof-muhitni muhofaza qilishda turizmni rivojlantirishda quyidagi 3 jihatni nazarda tutish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

- Turizmni ekologik jihatlari orqali o'zgartirishni o'rganish va yashil rivojlanish strategiyasi asosida amalga oshirish;
- “Yashil” iqtisodiyotga asoslangan turizmni rivojlantirish infratuzilmasini

<sup>206</sup> Torabi Farsani, N., Moazzen Jamshidi, H., Hekmat, M. (2023). Mine museums: A creative economics approach towards sustainable tourism. *Museum Management and Curatorship*, 1-18. <https://doi.org/10.1080/09647775.2023.2209852>

<sup>207</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi.

rivojlantirish va resurslardan foydalanishda atrof-muhit barqarorligi uchun qayta tiklanuvchi energiyani qo'llash;

– Barqarorlik tamoyili va yashil iqtisodiyotga yo'naltirilgan turizm sektorini yaratishga asoslanadi.

Turizm sohasi bugungi kunda iqlim o'zgarishi va atrof-muhit degradatsiyasidan eng ko'p ta'sirlanayotgan, shu bilan birga ushbu jarayonlarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatayotgan iqtisodiy tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, turizm bilan bog'liq faoliyatlar global issiqxona gazlari emissiyalarining qariyb 8 foizini tashkil etadi.<sup>208</sup>

O'zbekiston sharoitida ham turizmning jadal rivojlanishi ekologik bosimning ortishiga olib kelmoqda. Xususan, transport tizimi (ayniqsa havo qatnovlari), mehmonxona infratuzilmasi va turistik obyektlarning energiya iste'moli yuqori bo'lib, ular karbon chiqindilarining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, suv resurslaridan ortiqcha foydalanish, chiqindilarni boshqarish tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi va tabiiy hududlarda turistik yuklamaning oshishi ekologik muammolarni yanada keskinlashtirmoqda. Mamlakatning asosiy turistik hududlari – Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlar, shuningdek, Chorvoq, Zomin, Boysun kabi tabiiy rekreatsion zonalarda turizm oqimining ortishi mahalliy ekotizimlarga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda suv iste'molining ortishi, chiqindilar to'planishi, biologik xilma-xillikning kamayishi va infratuzilma yuklamasining ortishi va shu kabi muammolar kuzatilmoqda.

Shunga o'xshash tendensiyalar Yevropa mamlakatlarida ham qayd etilgan bo'lib, turizmning nazoratsiz rivojlanishi qirg'oq eroziyasi, tabiiy resurslarning tanazzuli va urbanizatsiya jarayoni bosimining ortishiga olib kelmoqda.<sup>209</sup>

O'zbekistonda turizmni barqaror rivojlantirish uchun ekologik yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, "yashil" turizm tamoyillarini keng joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirish, ekologik transport tizimlarini rivojlantirish hamda chiqindilarni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini qo'llash zarur. Shu bilan birga, mahalliy aholi manfaatlarini inobatga olgan holda resurslardan oqilona foydalanish va turistik yuklamani hududlar kesimida muvozanatlashtirish barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, turizmning ekologik ta'sirini kamaytirish va iqlim o'zgarishiga moslashish O'zbekiston turizm siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim. Bu nafaqat tabiiy resurslarni asrash, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun ham muhimdir.

---

<sup>208</sup> Lenzen, M., Sun, Y., Faturay, F., Ting, Y. (2018). The carbon footprint of global tourism. *Nature Climate Change*. <https://www.nature.com/articles/s41558-018-0141-x>

<sup>209</sup> Perch-Nielsen, S., Sesartic, A., Stucki, M. (2010). The greenhouse gas intensity of tourism sector. *Environmental Science & Policy*. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1462901109001695>